OLIY TA'LIM RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Ergashev Shirinbobo Xotam o'g'li
Yo'ldoshboyev Muhammadyusuf Jasurbek o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabalari
Chirchiq, O'zbekiston
Elektron pochta: shirinboboergashev@gmail.com telefon: +99898 0073130

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy zamonaviy tendensiyalari to'g'risida fikrlar bayon qilingan. Oliy ta'lim tendensiyalarini o'rganish sohasidagi etakchi olimlarning aniq qarashlari tahlil qilinib oliy ta'lim tizimining rivojlvnishida Boloniya jarayoning ahamiyati to'g'risida tahlillar keltirilgan.
Kalit so'zlar: kredit-modul, tendensiyalar, globallashuv, integratsiya, tijoratlashtirish, mobillik, masofaviy ta'lim.

Аннотация. В данной статье представлены взгляды на основные современные тенденции развития высшего образования. Анализируются конкретные мнения ведущих ученых в области изучения тенденций в высшем образовании, а также значение Болонского процесса в развитии системы высшего образования.
Ключевые слова: кредитный модуль, тенденции, глобализация, интеграция, коммерциализация, мобильность, дистанционное обучение.

Abstract. This article presents views on the main modern trends in the development of higher education. The specific views of leading scholars in the field of studying trends in higher education are analyzed and the importance of the Bologna process in the development of the higher education system is analyzed.
Keywords: credit module, trends, globalization, integration, commercialization, mobility, distance learning.

KIRISH

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyasini amalga oshirishi hozirgi globallashuv jarayonida muhim hisoblanadi. Xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashish orqali ilmiy salohiyatni kuchaytirish va innovatsiyalarni rivojlantirish mamlakatning kelajagini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz xalqaro ta'lim standartlarini qabul qilish orqali o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi chuqur o'rganilib samarali jihatlarimuhokama qilinmoqda. Talabalarning mavjud ehtiyojlarini aniqlash, talabaga yo'naltirilgan ta'lim tizimini tashkil etish va zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda Boloniya jarayoni tajribalari o'rganib chiqildi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Boloniya jarayoni turli davlatlarning oliy ta'lim tizimlarni umumiy maxrajiga olib kelish, Yevropaning turli milliy ta'lim tizimlarini shaffof va bir-biriga mos keladigan holga keltirish maqsadida 1999-yil 19-iyun sanasida 29 Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari Bolonya deklaratsiyasini imzolagan hamda Bolonya universiteti nomi bilan shunday atalgan. Ushbu jarayon Yevropa Kengashining Yevropa Madaniy Konvensiyasi doirasida boshqa davlatlar uchun

ham ochilgan. Bolonya jarayoni doirasidagi hukumat majlislari Praga (2001), Berlin (2003), Bergen(2005), London (2007), Leven (2009), Budapesht-Vena (2010), Buxarest (2012), Yerevan (2015), Parij (2018) va Rim (2020)da bo‘lib o‘tgan.Shu kunga qadar jarayon Yevropa Kengashining Yevropa madaniyat konvensiyasini (1954) ratifikatsiya qilgan 49 davlatdan 48 ta ishtirokchi davlatlarni o‘z ichiga oldi. Jumladan, Rossiya Bolonya jarayoniga 2003 yil sentabr oyida Yevropa ta’lim vazirlarining Berlindagi yig‘ilishida qo‘shildi, Ukraina ta’lim vaziri 2005 yilda Bergenda Bolonya deklaratsiyasini imzoladi, 2010 yilda Budapeshtda Qozog‘istonning Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilishi bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilindi.

MUHOKAMA

E’tiborli jihati Qozog‘iston Yevropa ta’lim makonining to‘laqonli a’zosi sifatida tan olingan birinchi Markaziy Osiyo davlati hisoblanadi.O‘tgan davr mobaynida Bolonya jarayoni a’zo davlatlari o‘rtasida oliy ta’lim malaka standartlari va sifatini solishtirishni ta’minlashga qaratilgan vazirlar darajasidagi bir qator uchrashuvlar va kelishuvlarga erishdi. Oliy ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyasida mazkur jarayonning bir nechtaafzalliklari kuzatishimiz mumkin. Jumladan,

- sifatni kafolatlovchi umumiy standartlar va umumiy tartibotlar ishlab chiqildi;
- kredit to‘plab ularni o‘tkazish va o‘zaro tan olish tizimi (ECTS) joriy etildi;
- davlatlararo yagona ta’lim muhiti yaratildi;
- ta’limning xalqarolashuviga erishildi;
- mobillikning erkinlik darajasi berildi;
- hamkorlik dasturlari ishlab chiqilib qo‘shma diplomlar berilishi yo‘lga qo‘yildi;
- ixtisoslik, kvalifikatsiyalar tan olinishi yo‘lga qo‘yildi;
- ta’lim doirasi va kasbiy sohada diplomlar tan olinishi yo‘lga qo‘yildi;
- talaba tahsil olish yo‘llarini tuzishida erkinliklar berildi;
- talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun

Yevropa universitetlariga borib tahsil olish, ishlash hamda taqdiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar berildi. Boloniya jarayoni imkoniyatlari, ta’lim sifat samaradorligiga ta’sirini yurtimiz olimlari va mutasaddi mutaxassislar tomonidan o‘rganib chiqilib hozirgi zamonda milliy ta’limga innovatsiyalarni joriy yetish, integratsiya, harakatchanlik, tijoratlashtirish,shuningdek, masofaviy ta’limni joriy etish lozim degan xulosaga kelishdi. Oliy ta’lim islohotlari mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta’lim modelini shakllantirishga qaratildi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning yeng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.” Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2019-yil “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishkonsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi. 2020-yil yakunida esa “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 824-son Qarori tasdiqlandi.

Unga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System —ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibi belgilandi. Natijada, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejasi va fan dasturlari takomillashtirildi, oliy ta’lim muassasasida 3 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda professor-o‘qituvchilarni nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarda stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi, 5 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda o‘qituvchilarni nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarning doktorantura dasturlari asosida o‘qitish tartibi ishlab chiqildi.
Auditoriya mashg‘ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta’lim elementlaridan iborat ta’lim dasturlari takomillashtirildi, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo‘yicha namunaviy fan dasturlari yaratildi, kreditlarni tan olish va ko‘chirib o‘tkazishga, akademik mobillikka ruxsat berildi. Talaba bakalavriatda o‘qish muddati kamida 3 yil bo‘lganda 180 kredit, o‘qish muddati kamida 4 yil bo‘lganda 240 kredit to‘plashi zarurligi, magistraturada o‘qish muddati kamida 1 yil bo‘lganda 60 kredit, o‘qish muddati kamida 2 yil bo‘lganda 120 kredit to‘plashi talabi belgilandi.

NATIJA

Har bir oliy ta’lim muassasasi vazifasi sifatida xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etib ilmiy pedagogik faoliyatga chet elning yuqori malakali professor-o‘qituvchilari va olimlarini jalb etish, yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tadbiq etib zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash belgilandi.Shu tariqa kredit-modul tizimini joriy etish orqali mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida Boloniya jarayoniga oid mushtarak jihatlar ham vujudga keldi. Jumladan,

- integratsiya;
- ta’limning uch bosqichli tizimi;
- doktoranturabo‘yicha yangi tizim;
- ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;
- hamkorlikni rag‘batlantirish;
- ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;
- ta’lim sifatiga e’tibor qaratish;
- kadr iste’molchilari bilan aloqani o‘rnatish orqali bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash;
- OTM lar reyting tizimi va h.z.

XULOSA

O‘zbekiston Boloniya jarayoni ishtirokchisi bo‘lmasada oliy ta’lim olish imkoniyatining hamma uchun borabar bo‘lishi, kreditlar va diplomlarning tan olinishi, talaba va xodimlarning bir joydan boshqa joyga borib o‘qish va ishlarini davom ettirishlariga yo‘l ochildi. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy xujjatlarni xorij va mahalliy tajriba asosida zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqib ishlab chiqilishi yo‘lga qo‘yilmoqda. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun ta’lim jarayonidagi yangiliklarni ko‘r-ko‘rona, shoshma-shosharlik bilan emas, mavjud erishilgan tajriba, shu kunga qadar shakllangan yondashuvlarni umumlashtirib yangiliklar tizimli ravishda joriy etmoqda. Hozirgi kunga kelib oliy ta’lim muassasalarida orttirilgan tajribalar asosida zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanib

kelinmoqda. Jumladan, raqamli platformalar orqali masofaviy, onlayn mashg‘ulotlar ham olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida ma’lumotlarni bepul ulashish, ta’lim xizmatlarining importi va eksportini rag‘batlantirish, ta’lim innovatsiyalarini joriy etishga ko‘maklashish, axborot texnologiyalari samarali rivojlanishiga imkon beradigan ta’lim shakllari va usullaridan foydalanishga olib keladi. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz oliy ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyasi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan, bozor iqtisodiyoti davrida raqobatbardosh va ish beruvchi tashkilotlarning talablariga javob beraoladigan kadrlarni yetkazib kelgusi avlodga barcha imkoniyatlarni yaratib beruvchi o‘z milliy tizimini yaratishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida” gi 824-son Qarori.
3. Болонская декларация “О Европейском регионе высшегообразования”. г. Болонья, Италия. 1999.
4. O‘rinov B., Sultonov B., Umarov A. O‘zbekiston Respublikasioliy ta’lim tashkilotlarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2020. –96 bet.
5. Gebaew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). ASystematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI).
6. Farux Jumanov. Oliy ta’lim tizimini transformatsiyalash va istiqbolli yo‘nalishlar. “Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va tashkiliy boshqaruvni takomillashtirish muammolari”, konferensiya. 97-99, 2023